

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIGA O‘ZBEKISTONNING A‘ZO BO‘LISHI VA ISHTIROKINING AHAMIYATI

Jo‘rayeva Barchinoy Musallamovna,

Xalqaro jurnalist, O‘zJOKU mustaqil tadqiqotchisi

barchinoy2009@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonning 2019 yildan buyon Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT)ga a‘zoli va undagi faol ishtirokining siyosiy, iqtisodiy hamda geostrategik ahamiyati tahlil qilinadi. TDTning tarixiy-madaniy asoslari, 2009 yilgi Naxchivon shartnomasi va 2021 yilda tashkilot nomining o‘zgarishi kontekstida O‘zbekistonning tashabbuslari hamda platformadagi roli yoritiladi. Siyosiy jihatdan tashkilot mintaqaviy kun tartibini shakllantirish, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash imkonini bersa, iqtisodiy yo‘nalishda savdo, investitsiya, transport-tranzit (xususan, “O‘rta yo‘lak” va Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li) bo‘yicha yangi sur‘atlar qayd etiladi. Statistik ma‘lumotlar savdo hajmi, YAIM va TTXI o‘rishini ko‘rsatadi. Xulosa sifatida, O‘zbekistonning TDTdagi faolligi turkiy dunyo integratsiyasiga turtki berib, mamlakatning mintaqaviy nufuzini mustahkamlamoqda.

Kalit so‘zlar: Turkiy Davlatlar Tashkiloti; O‘zbekiston; mintaqaviy integratsiya; “O‘rta yo‘lak”; transport-tranzit; savdo va investitsiyalar; xavfsizlik; geosiyosat; Naxchivon shartnomasi, TTXI.

Аннотация. В статье анализируется значение членства и активного участия Узбекистана в Организации тюркских государств (ОТГ) с 2019 года в политическом, экономическом и геостратегическом измерениях. На основе историко-культурного фундамента тюркской цивилизации рассматриваются институциональные этапы (Нахичеванское соглашение 2009 г., переименование в 2021 г.), а также инициативы Узбекистана. Политически ОТГ усиливает координацию повестки и безопасность в регионе; экономически фиксируется рост торговли, инвестиций и развитие транспортно-транзитных коридоров, включая «Срединный коридор» и ж/д Китай–Киргизия–Узбекистан. Приведённые показатели демонстрируют увеличение взаимной торговли, ВВП и ПИИ. Делается вывод, что активность Узбекистана придала новый импульс интеграции тюркского мира и укрепила региональный авторитет страны.

Ключевые слова: Организация тюркских государств; Узбекистан; региональная интеграция; Срединный коридор; транспорт и транзит; торговля и инвестиции; безопасность; геополитика; Нахичеванское соглашение; ПИИ.

Abstract. The article examines the significance of Uzbekistan’s membership and active engagement in the Organization of Turkic States (OTS) since 2019 across political, economic, and geostrategic dimensions. Building on the historical-cultural foundations of the Turkic world, it outlines key institutional milestones (the 2009 Nakhchivan Agreement and the 2021 renaming) and highlights Uzbekistan’s initiatives within the OTS. Politically, the OTS supports regional agenda-setting, stability, and security; economically, it has spurred growth in trade and investment and advanced transport-transit connectivity, notably the Middle Corridor and the China–Kyrgyzstan–Uzbekistan railway. Reported figures indicate rising mutual trade, GDP, and FDI. Overall, Uzbekistan’s proactive role has energized Turkic integration and strengthened its regional standing.

Keywords: Organization of Turkic States; Uzbekistan; regional integration; Middle Corridor; transport and transit; trade and investment; security; geopolitics; Nakhchivan Agreement; FDI.

Kirish. Turkiy xalqlar insoniyat sivilizatsiyasining ilk davrlaridan boshlab ulkan hududlarni egallab, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda muhim o‘rin tutgan. Ular Sharqdan G‘arbga qadar cho‘zilgan katta hududlarda davlatlar barpo etgan, karvon yo‘llarini ochgan va dunyo sivilizatsiyasiga boy madaniy meros qoldirgan. Qarluqlar, Qoraxoniylar va keyingi davrlarda Chig‘atoy ulusi, Temuriylar davlatlari turkiy davlatchilik an‘anasining qanchalik mustahkam va o‘z davriga ta’sir o‘tkaza olganligini

ko'rsatadi. Misol uchun, Samarqand va Buxoro kabi shaharlar nafaqat islom dunyosi, balki butun Sharq sivilizatsiyasi uchun ilm-fan va madaniyat markazlari bo'lgan. Mirzo Ulug'bekning rasadxonasida amalga oshirilgan astronomik tadqiqotlar, Alisher Navoiyning adabiy merosi va Amir Temurning davlatchilik tajribasi turkiy dunyodagi hamjihatlik va birlikning muhim namunasidir.

Adabiyotlar tahlili. Shu ma'noda, Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) – bugungi kunda tarixiy merosga asoslangan zamonaviy hamkorlikning mantiqiy davomi hisoblanadi. Turkiy davlatlar tashkiloti turkiy tilli mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalaridagi hamkorligini mustahkamlash uchun yaratilgan xalqaro tuzilmadir. Bugungi kunda TDT savdo-iqtisodiy va transport-tranzit aloqalaridan tortib, kosmik tadqiqotlarga bo'lgan 35 ta asosiy yo'nalishda hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Avvalgi bo'limlarda ko'rib chiqqanimizday, uning asosi 2009 yilda Naxchivon shartnomasiga ko'ra Turkiy kengash nomi bilan qo'yilgan. Keyinchalik, 2021 yilda tashkilot nomi Turkiy davlatlar tashkiloti deb o'zgartirildi. O'zbekiston mazkur tashkilotga 2019 yil mart oyida rasman a'zo bo'ldi. Bu qadam mamlakatning mintaqaviy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etishga, turkiy davlatlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan muhim siyosiy qaror edi.

Bu haqda Turkiyaning "TRT AVAZ" telekanalining elektron nashrida e'lon qilingan maqolada shunday qayd etiladi: "O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lishga qaror qilganini e'lon qilib, "Prezident Erdo'g'an bilan uzoq muhokamalar o'tkazdik. Bu kengashdagi bayroqlar orasida O'zbekiston bayrog'i ham bo'ladi. Bishkekdagi yig'ilishda O'zbekiston ham ishtirok etadi, bu muhim, muhim qaror", dedi." [6]

Tadqiqot metodologiyasi. Bu jarayonni xalqaro ekspertlar ham sharhlab, fikr-mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, Anqara Xoji Bayram Vali universiteti professori, doktor Firat Purtash o'z maqolasida shunday yozadi: "O'zbekiston 34 million aholisi, qo'shni davlatlardagi diasporasi, madaniy-tarixiy boyligi, iqtisodiy salohiyati bilan turkiy respublikalar orasida alohida o'rin tutadi. O'zbekistonning 2019-yil 15-oktabr kuni Turkiy kengashga to'laqonli a'zo sifatida qo'shilishi turkiy dunyo integratsiyasida muhim bosqich bo'ldi. Rossiya boshchiligidagi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida (YEI) kuzatuvchi maqomi bilan qatnashgan O'zbekistonning Turkiy kengashning to'laqonli a'zosi bo'lishni tanlashi oddiy qaror emas. Turkiy dunyo bilan integratsiyani tanlashi O'zbekistonning umumiy tashqi siyosatiga ham mos keladi." [7]

Jumladan, Yevropa Osiyo tadqiqotlari instituti ilmiy xodimi Kalum Tomson O'zbekistonning yangi islohotlar davriga qadam qo'yayotgani, buning uchun ishonchli sheriklarga ehtiyoji borligini ta'kidlar ekan, shunday fikr bildiradi: "O'zbekiston tashkilotdagi aholi soni ko'pligi bo'yicha ikkinchi yirik davlat bo'lib, uning Turkiy Kengashga a'zo bo'lishi tashkilotning mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va hamkorlik

bo'yicha keng ko'lamli rejalarini amalga oshirishni boshlashi uchun uchqun bo'lishi mumkin." [8]

Tahlillar va natijalar. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Prezidenti 2019 yildan shu kunga qadar o'tkazilgan sammitlarida TDT doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 98ta amaliy tashabbuslarni ilgari surdi. Bugungi kunga qadar 70ga yaqin tashabbus amalga oshirildi va 30ga yaqini joriy etilish bosqichida.[9]

O'zbekistonning TDTga a'zo bo'lishining ahamiyatini biz ushbularda ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan: Siyosiy ahamiyati- hamkorlik, xavfsizlik va xalqaro nufuz masalalari. O'zbekiston TDT orqali jamiki turkiy davlatlar bilan siyosiy hamkorlikni mutahkamlaydi, mintaqada tinchlik, barqarorlikni ta'minlashda, integratsiyani kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Garchi ushbu platforma tashkil etilgan ilk kunlaridanoq siyosiy emas, iqtisodiy va ildizi bir madaniy-ma'rifiy hamkorlik ustuvor yo'nalishimiz, deya bildirgan bo'lsada, Markaziy Osiyodagi yirik davlatlarni o'z safiga qo'shishni maqsad qilgan xalqaro tashkilotda siyosiy aspektlarning ham ko'zlanganligi sir emas edi.

O'zbekiston o'z mintaqasidagi barcha Markaziy osiyo davlatlari, qolaversa, Afg'oniston bilan chegeradosh bo'lgan yagona davlat ekanligini inobatga olsak, tashkilotga a'zo bo'lish bilan O'zbekiston mintaqaviy kun tartibni shakllantirishda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Chunki O'zbekiston Markaziy Osiyoning yetakchi davlatlaridan biri sifatida Afg'oniston masalasida ham, xavfsizlik sohasida ham faol pozitsiyada turibdi.

Tarix fanlari doktori, professor Sherzod Abdullayev shunday yozadi: "O'zbekistonning Turkiy Kengashga qo'shilishi bilan tashkilot yangi va nufuzli a'zo davlatga ega bo'lib, o'z mavqegini yana bir karra oshirdi. O'zbekistonning Kengashga a'zo bo'lishi tashkilot kun tartibini sezilarli darajada diversifikatsiya qiladi va uni mustahkamlaydi. 33 million aholiga ega O'zbekiston mintaqadagi eng yirik davlat bo'lib, uning a'zo bo'lishi Kengashdagi turkiy millat vakillarining sonini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu muhim voqea tashkilotning "sharqiy qanoti"ni mustahkamlaydi. Bu kunga qadar 80 milliondan ortiq aholisi bo'lgan Turkiya va 10 million aholiga ega Ozarbayjon "g'arbiy qanot"ning eng kuchli a'zolari edi. Sharqiy blokga Toshkentning kiritilishi Qozog'iston va Qirg'iziston bilan birgalikda kerakli muvozanatni yaratadi. Bu bilan tashkilotning iqtisodiy va siyosiy salohiyatini mustahkamlaydi hamda Turkmanistonning kelajakda tashkilotga a'zo bo'lish imkoniyatini ochadi." [1]

Jumladan, Shanxay Universiteti professori Go Changan ushbu platformani Yevroosiyodagi yangi geosiyosiy model deb ta'riflar ekan, unga Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekistonning a'zo bo'lishi sabablarini shunday izohlaydi: "Turkiy davlatlar tashkilotining maydonga kelishi Yevroosiyo qit'asini Yevropa Ittifoqi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Shanxay hamkorlik tashkiloti va hokazolar bilan raqobatlasha oladigan geosiyosiy kuchga aylantirdi. O'tmishda Markaziy Osiyo davlatlari

shunchaki “manipulyatsiya qilingan” personajlar edi. Bundan buyon ular “faol” geosiyosiy o‘yinchiga aylanadi, bu esa Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Yevroosiyo geosiyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, hatto Yevroosiyo geosiyosiy landshaftini tubdan o‘zgartiradi.” [10]

Bu hamkorlikda Turkiyaning manfaatlari ustunlik kasb etadi, zotan, Turkiya va AQSH munosabatlari taranglashgan, Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish imkoniyatlari boy berilgan, endilikda esa bu davlat “turkiy birlik” soyaboni ostida dunyo geosiyosiy maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlamoqchi, degan fikrlar ko‘p bora bildirildi. Bu fikrlarda ham jon bor. Ushbu platformaga a’zo davlatlar bugungi kunda katta kuch.

TDT keng qamrovi va aholi sonining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Turkiyzabon xalqlar asosan Yevroosiyoning markaziy va g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, ularning soni 164 million kishini tashkil etadi va taxminan 7 million kvadrat kilometr maydonga tarqalgan. Olti turkiyzabon davlatning umumiy maydoni 4,73 million kvadrat kilometrni egallaydi va umumiy aholisi taxminan 170 million kishini tashkil etadi, shundan taxminan 125 millioni turkiyzabonlardir. Bu esa butun dunyodagi turkiy tilli xalqlar umumiy sonining 76,2 foizini tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, TDT yuqori nufuz va global maydonda muhim ovozga ega.[11] (2023 yildagi ma’lumot)

Ushbu xalqaro platforma xavfsizlik sohasida ham qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Xususan, terrorizmga qarshi kurashish, chegara xavfsizligini ta’minlash va migratsiya masalalarida hamkorlik kuchaymoqda. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish juda dolzarb, chunki mamlakat geostrategik jihatdan muhim hududda joylashgan.

Ikkinchidan, iqtisodiy ahamiyati muhim. Bunda savdo va investitsiyalar, transport va tranzit aloqalar, investitsion muhitni mustahkamlash kabi masalalar kun tartibiga chiqadi.

TDT a’zoli O‘zbekistonga turkiy davlatlar bilan tovar aylanmasi hajmini oshirish imkonini berdi. Masalan, so‘nggi yillarda Turkiya va Ozarbayjon bilan savdo aylanmasi keskin o‘sd. Shu bilan birga, TDT doirasida yagona savdo maydonini shakllantirish rejalari bor. Investitsiya sohasida esa, ayniqsa, turk kompaniyalari O‘zbekistonda yirik sanoat, qurilish va qishloq xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirmoqdalar.

O‘zbekiston uchun transport-logistika va tranzit masalasi strategik ahamiyatga ega. Ahamiyatlisi, turkiy davlatlar jahon iqtisodiyotida o‘zining tranzit ahamiyatining barqaror o‘shini namoyish etmoqda. «O‘rta yo‘lak» orqali yuk tashish hajmi 2024 yilda 4,5 million tonnani tashkil etib, 2020 yilga nisbatan qariyb 6 barobar oshgani buning yaqqol tasdig‘idir. Bunday dinamika boshqa infratuzilma loyihalari, jumladan, «Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston» temir yo‘lining strategik zarurligini ko‘rsatadi. [11]

TDT doirasida O‘rta yo‘lak transport yo‘li, Kaspiy dengizi orqali tranzit yo‘nalishlari, Ozarbayjon va Turkiya orqali Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlari muntazam muhokama qilinadigoan mavzu. Bu loyihalar O‘zbekistonni xalqaro logistika tizimida muhim bog‘lovchi zanjir sifatida namoyon qiladi. O‘zbekiston TDT doirasida

logistika va transport sohasidagi amaldagi loyihalarni ilgari surmoqda, shu jumladan, infratuzilmalarni takomillashtirish, tarifni optimallashtirish va transport logistika qo'shma dasturlari.

O'zbekistonning geografik joylashuvi uni Markaziy va Janubiy Osiyo, Kavkaz va Yaqin Sharq davlatlari o'rtasidagi bog'lovchi zanjirga aylantiradi. Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston va Yevropaga qadar cho'ziluvchi O'rta yo'lak eng asosiy regional marshrutga aylanmoqda. [12]

Ta'kidlash lozimki, tashkilotga a'zolik barcha qardosh xalqlarning, jumladan, O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga xizmat qilmog'i lozim edi. Bu maqsadlarga qanchalik erishilganligini ko'rmoq uchun, biroz oldinga o'tib, hozirgi natijalarga yuzlansak, 2019 yilda olingan qaror naqadar to'g'ri ekanligiga amin bo'lamiz: TDT mamlakatlari o'rtasidagi savdo aylanmasi 2022-yildagi 30,9 milliard dollardan 2024-yilda 45 milliard dollargacha o'sdi. Faqat so'nggi to'rt yil ichida TDT a'zolarining umumiy YAIM hajmi 20 foizga (1,6 trillion dollar), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar esa 22 foizga o'sdi.

"21-asr Turkiya instituti" bosh direktori Jo'shqin Foiq Qavala shunday ta'rif beradi: "Turkiy dunyoda integratsiyani tezlashtirishning muhim omili Qorabog' g'alabasi tomonidan yaratilgan ijobiy muhit bo'lsa, yana bir omil turkiy dunyoning yetakchi markazlaridan biri bo'lgan O'zbekistonning tashkilotga a'zoligi va integratsiya uchun kurashda faol ishtirok etishidir." [13]

Xulosa. Turkiy davlatlar tashkiloti a'zolari bo'lgan 5 davlatning umumiy maydoni 4 244 026 kvadratga teng. Ushbu davlatlar hududida istiqomat qilayotgan jami aholi soni esa 170 milliondan ziyod. Bu ulkan imkoniyat va bozor demakdir. Mazkur jihatlar va shu kunga qadar erishilgan kelishuvlarga ko'ra, tashkilotni ro'yobga chiqarilmagan ulkan imkoniyatlar va birlashtiruvchi salohiyatga ega bo'lgan mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmi, deb biluvchi O'zbekistonning a'zo mamlakatlar bilan o'zaro tovar ayriboshlash ko'rsatkichlari yil sayin oshib bormoqda. [14]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Ш. Узбекистан в Тюркском совете: общность интересов, возможности и потенциал сотрудничества // Узбекистан в современном мире (Xalqaro munosabatlar). – 2019. – № 2.
2. Юйянь Ч. Организация тюркских государств (ОТГ): происхождение, мотивы, особенности и влияние // Вестник Пермского университета. Политология. – 2023. – Т. 17, № 1. – С. 78–87.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Тошкент.: "Маънавият", 2002
4. Тошпўлатова Н. Online versions of local newspapers in Uzbekistan: problems and prospects/file:///C:/Users/User/Downloads/online-versions-of-local-newspapers-in-uzbekistan-problems-and-prospects.pdf
5. Алимов Б. Роль имиджа страны в международном медиапространстве/<https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/article-2305-6579.pdf>
6. TRT Avaz. Ozbekistan Turk Dili Konusan Ulkeler Isbirligi Konseyi'ne Katilma karari aldi// - 30.04.2018. – URL: <https://www.trtavaz.com.tr/haber/tur/turkistandan/ozbekistan-turk-dili-konusan-ulkeler-isbirligi-konsevine-katilma-karari-aldi/5ae6f8b801a30a0e8072abfd> (25.09.2025)
7. Purtaş Fırat. Yeni Özbekistan ve Türk Dünyası // - Kriter Dergi // - 1.11.2021. –URL: <https://kriterdergi.com/dosya-turk-dunyasi/yeni-ozbekistan-ve-turk-dunyasi> (25.09.2025)

8. EIAS. Uzbekistan Participates in its First Turkic Council Summit as Full Member// -17.10.2019. – URL: <https://eias.org/publications/op-ed/uzbekistan-participates-in-its-first-turkic-council-summit-as-full-member/> (25.09.2025)
9. Ўзбекистон-ТДТ: барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик // -7.10.2025. ИА “Дунё” // - URL:<https://dunyo.info/uzk/diplomatiya/uzbekistan-otg-sotrudnichestvo-na-puti-ustoychivogo-razvitiya-i-progressa> (15.10.2025)
10. Guo Changgang (郭长刚). 突厥国家组织，欧亚地缘新格局？ [Электрон ресурс]. — Shanghai University Global Issues Institute (上海大学全球问题研究院)// -4.12.2021. – URL:<https://igs.shu.edu.cn/info/1036/3725.htm>
11. Юйянь Ч. Организация тюркских государств (ОТГ): происхождение, мотивы, особенности и влияние // Вестник Пермского университета. Политология. – 2023. – Т. 17, № 1. – С. 78–87. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-tyurkskih-gosudarstv-otg-proishozhdenie-motivy-osobennosti-i-vliyanie/viewer>
12. Trend.Az. President Mirziyoyev advances Uzbekistan’s logistics vision for OTS states through new railway corridors// -8.10.2025. –URL: <https://www.trend.az/business/4100769.html> (15.10.2025)
13. <https://21yyte.org/uzbekistan/ozbeki-stan-in-turk-dunyasindaki-yeri/30309> (16.01.2026)
14. <https://dunyo.info/uzk/diplomatiya/uzbekistan-otg-sotrudnichestvo-na-puti-ustoychivogo-razvitiya-i-progressa> (15.10.2025)

